

LEPTOSPEROZ KASALLIGI.

Mengliyev Ali Saykanovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti v.b Professori.

Anorova Ruxsora Jumabek qizi

Eshmirzayeva Kamola Abdulkarim qizi

Xolmurodova Sabrina Dilmurod qizi

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti 2 - bosqich talabalari.

Annottatsiya: ushbu maqolada qishloq xo'jalik hayvonlarida va parrandalarda ko'p uchraydigan leptosperoz kasalligi haqida, uning rivojlanishi, kelib chiqish sabblari, yuqumliligi, zarar-oqibatlarini, klinik belgilari, davolash usullari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar; leptosperoz, gemoglobunireya, nekroz, anemiya tabiiy o'choqli kasallik, gemorratik diatez, giperemmun qon zardobi, vaksinatsiya, faol immunitet, differensial tashxis.

ЛЕПТОСПЕРОЗ.

Аннотация: В данной статье рассматривается лептоспироз — заболевание, распространенное среди сельскохозяйственных животных и птицы, его развитие, причины, заразность, последствия, клинические признаки и методы лечения.

Ключевые слова: лептоспироз, гемоглобинурия, некроз, анемия, естественное очаговое заболевание, геморрагический диатез, гипериммунная сыворотка, вакцинация, активный иммунитет, дифференциальная диагностика.

LEPTOSPEROSIS DISEASE.

Annotation: This article discusses leptospirosis, a disease common among farm animals and poultry, its development, causes, contagiousness, consequences, clinical signs and treatment methods.

Keywords: leptospirosis, hemoglobinuria, necrosis, anemia, natural focal pain, hemorrhagic diathesis, hyperimmune serum, vaccination, active immunity, differential diagnosis.

Leptosperoz lotincha, (leptospera, leptoz-yengil, speria-spiral) (ingl. Liptospirosis; o'zb - sariq kasal) - ko'p turli hayvonlar va parrandalarning infeksiyon tabiiy o'choqli kasalligi hisoblanadi. Bu kasallik barcha turdagi hayvonlarda va parrandalarda tarqalgan yuqumli

kasallik hisoblanadi, kasalikka barcha tur hayvonlar moyil ammo yoshlari sezgirroq, ularda kasallik og‘ir kechadi. Mahalliy jaydari qoramollarda esa kasallik kamroq uchraydi. Tabiiy sharoitda kasallik manbai kemiruvchilar hisoblanadi.

Kasalikda isitma, gemoglabuneriya, teri va shilliq qavatlarda sarg‘ayish, nekroz, ovqat hazm qilish a‘zolarida atoniya, bola tashlash yoki yashashga layoqatsiz nasl berish, mahsuldorlikning pasayishi kuzatiladi. Leptosperozlar organizmga teri, og‘iz, burun, ko‘z, jinsiy a‘zolar, ovqat hazm qilish shilliq pardalari orcha fasllarda bo‘ladi ammo yoz va bahorda ko‘proq uchraydi.

Tarixiy ma‘lumot. Leptospirozni 1886 yilda nemis olimi Vayl va 1888 yilda rus olimi N.P. Vasilev odamlarda ro‘yxatga olgan. Ammo qo‘zg‘atuvchi spiroxetani 1914 yilda Inada va boshqalar odamlarning yuqumli sariq kasali qoni bilan zararlangan dengiz cho‘chqasining jigaridan ajratishgan. N. Nikolskiy va boshqalar 1935 yilda qoramollarda o‘tkir o‘tuvchi sariq kasallikni ikterogemoglobinuriya deb yozishgan.

1939 yilda V. Terskix va 1940 yilda M.V. Zemskov ushbu kasallikning etiologiyasi leptospira ekanligini isbotlaganlar. S.N. Nikolskiy, F.M. Desyatov, G.F. Marchenkolar 1934–1935 yillarda birinchi marta qoramollar, ot va cho‘chqalarda ikterogemoglobinuriya kasalligining keng tarqalganligi to‘g‘risida ma‘lumot berganlar. V.I. Terskix 1938–1939 yillarda qoramollarda ikterogemoglobinuriya kasalligining leptospiroz ekanligini serologik usulda tasdiqlab, uning qo‘zg‘atuvchisini sof holda ajratib olgan. Shu yilning o‘zidayoq M. Zemskov, S.Ya. Lyubashenko, V.E. Romanenko va boshqalar ham kasallikka chalingan mollardan leptospirani toza holda ajratib oladilar. 1940 yilda S.Ya. Lyubashenko tulki va echkilardan leptospiralarni ajratib olishga erishadi. Otlar leptospirozi ham 1946 yilda S.Ya. Lyubashenko tomonidan batafsil bayon etilgan. O‘zbekistonda leptospiroz kasalligi bo‘yicha N.J. Xudoyberdiyev, N. Shutyaev, E. Yaparovlar chuqur fikr va mulohazalar bayon etishgan va kasallikning o‘lka epizootologiyasi bilan shug‘ullanishgan.

Kasallikning iqtisodiy zarari: kasalikka chalingan hayvonlar orasida o‘lim juda katta bo‘lib bo‘g‘oz mollarda bola tashlash bo‘ladi, yangi tug‘ulgan hayvon bolalarining hayotchanligi past 2-3 kunda o‘lib qoladi, bundan tashqari mahsuldorlikning pasayishi, kasallikning oldini olish va davolashga juda katta mablag‘ sarflanadi. Leptosperalar tabiiy holatda oshqozon va ichak yo‘lining shilliq pardalari, konyuktiva va jarohatlangan terilar orqali organizmga tushib 12 soatdan so‘ng jigarda juda ko‘p miqdorda to‘planadi, shu joyda isitma paydo bo‘lgandan boshlab kasallik xuruj qila boshlaydi.

Kasallikning yashirin davri turli hayvonlarda turli xil bo‘lib 3-5 kundan 3 haftagacha davom etadi. Leptosperoz kasalligining klinik belgilari har xil bo‘lishi mumkin. Kechishiga qarab o‘ta o‘tkir, yarim o‘tkir, surunkali va apitik shakllar farqlanadi. Bunda hayvon oziqlanishi pasayib ketadi, tana haroratining ko‘tarilishi, shilliq pardalarda sariqlik, siydikda

gemogloblin va gematuriya kuzatiladi. Kuchli anemiya natijasida hayvon 12-24 soatda asfiksiyadan o‘ladi. Bundan tashqari diareya, keyinatoniya tufayli o‘ladi, ich ketishi bo‘g‘oz hayvonlarda bola tashlash holatlari kuzatiladi. Patologoanatomik o‘zgarishlar qariyb barcha hayvonlar uchun bir xil. O‘lgan qqoramollar terisi ostida, shilliq pardalarda qon quyilishlarni bo‘ladi, ushbu kasallikda asosiy o‘zgarishlar jigar va buyrakda bo‘ladi.

Tashxisi. Hayvonlarning leptosperozga tashxisi klinik belgilarga, patologik-anatomik o‘zgarishlarga, epizootologik ma‘lumotlarga va laboratoriya natijalariga asosan qo‘yiladi. Tirik hayvon uchun material bo‘lib qon va siydik, o‘lgan hayvon uchun yurak va buyrak va boshqa parenximatoz a‘zolar bo‘lakchalari, qorin, ko‘krak bo‘shliqlari va yurak bo‘lakchalari suyuqliklari olinib laboratoriyaga jo‘natiladi, agar bo‘g‘oz hayvonlarda abort kuzatilsa laboratoriyaga butun yoki uning oshqozoni ichidagi ozuqalari bilan parenximatoz a‘zolari yuboriladi. Kasallikni, bryuselloz, pirop plazmidoz, salmonelloz, kampilobakterioz, listerioz kasalliklaridan farqlash lozim.

Kechishi, klinik belgilari va shakllari. Kasallikning yashirin davri turli hayvonlarda turlicha bo‘lib, 3–5 kundan 3 haftagacha davom etishi mumkin. Leptospirozda klinik belgilar har xil bo‘ladi. Kechishiga qarab o‘ta o‘tkir, o‘tkir, yarim o‘tkir, surunkali va atipik shakllar farq qilinadi. Qoramollar, qo‘y echkilarda kasallik quyidagicha kechadi:

O‘ta o‘tkir kechishi. Kasallikka chalingan mol hech nima yemay qo‘yadi, tana harorati to‘satdan ko‘tariladi, ma‘yuslik va behollik kuzatiladi. Ayrim hollarda birpaslik hayajonlanish kuzatilib, behollikka aylanadi. Keyin tana harorati me‘yorgacha va undan pastga tushib, pulsi bir daqiqada 90–100 gacha yetadi. Nafas olishi tezlashadi va yuzaki bo‘ladi.

Kasallikda gemoliz kuchli bo‘lsa ham shilliq pardalarda sariqlik, siydikda gemoglobin va gematuriya (eritrotsitlar hisobiga) kuzatiladi. Kuchli anemiya natijasida hayvon 12–24 soat orasida asfiksiyadan o‘ladi.

O‘tkir kechishi. Asosan 2 haftalikdan boshlab 1,5 yoshgacha bo‘lgan yosh hayvonlarda qayd qilinadi. Bunda tana harorati 40–41,5°C gacha ko‘tarilib, 4–6 kun davom etishi mumkin. Ishtaha bo‘lmaydi va kavshash to‘xtaydi. Ularda ma‘yuslik, behollik va ataksiya kuzatiladi. 4–6 kun ichida teri,



kon'yunktiva, og'iz, qin shilliq pardalari sarg'ayadi. Siyish qiyinlashadi, u oz-oz chiqadi, qon aralash siyadi va u qizil qo'ng'ir rangda bo'ladi. Kasal hayvonning beliga bossa yoki o'rsa og'riqdan ingillaydi, belini bukadi. Kasallikning boshida diareya, keyin atoniya tufayli ich qotish kuzatiladi.

Bo'g'ozlikning 2-yarmida abort kuzatiladi, birdan suti kamayadi yoki butunlay to'xtaydi. Suti sariq, juni hurpaygan va xira bo'ladi. Birnecha kundan keyin og'iz milki shilliq pardasida, tilida, bel, quloq, lab, bo'yin va dum terisida uncha katta bo'lmagan nekroz maydonchalari kuzatiladi. Ayrim hollarda nekrozli joylar yara va eroziyaga aylanishi mumkin. Yelin so'rg'ichida paydo bo'lgan pufakcha yorilib kulrang po'stlog'li har xil ko'rinishdagi yoriqlar hosil qilishi mumkin.

Yurak urishi tezlashadi (bir daqiqada 100–120 marta), dukillaydi, ovozi jarangsiz bo'ladi. Pulsi ritmik va aksariyat holatda to'liq bo'ladi. Nafas olish tezlashadi va yuzaki bo'ladi. Qonda eritrotsitlar 1–3 mln/mkl, Hb 10–30% kamayadi, leykotsitlar soni 13–18 ming/mkl ga oshadi. Neytrofiliya, yadrolarning chapga siljishi, eozinofiliya va monotsitoz kuzatiladi. Kasallik 3–10 kun davom etadi. Davolanmasa, o'lim 50–70 % ni tashkil etadi.

Yarim o'tkir kechishi. Yuqorida qayd qilingan holat yaxshi rivojlanmay, ko'zga yaqqol tashlanmasdan kechadi. Ko'p hollarda kasal mollar sog'ayib ketadi. Isitma ko'tarilishi retsiv holatda davom etadi. Ba'zan bo'g'oz sovliq va sigirlar homila tashlaydi. Gemoliz qoramollarda yaqqol namoyon bo'la olmaydi. Kasallik uch haftagacha davom etib, ko'pchilik hollarda tuzaladi. Sog'aygan mollar asta-sekin o'z holatiga qaytadi.

Davolash. Kasal hayvonlar alohida ajratiladi va davolanadi, kasal qoramollarni davolash uchun polivalentli leptosperozga qarshi maxsus giperimmun qon zardobi ishlatiladi, teri ostiga 10-120 ml gacha yuboriladi. Maxsus qon zardobi kasallikning boshlang'ich davrida yuborilsa yaxshi samara beradi. Bundan tashqari, 4 kun mobaynida kuniga 2 marta 1kg tirik vazn ga 10-15000 birlikda streptomisin ishlatiladi. Bu buyrakdan leptosperalar ajralishini to'xtatadi. Qoramollar uchun streptomisin (10-12 ming TB 1kg vaznga 1 kunda 2 marta, 4-5 kun) qo'llanadi, bir vaqtda simptomik daolash uchun: qon tarkibini yaxshilash uchun venaga 50-500 ml atrofida 40% li glukoza eritmasi; urotropin (0,5-20g), teri ostiga, yurak faoliyatini yaxshilash uchun qoramollarga 2,0-3,0 g dozada kofein yuboriladi; og'izlari kaliy permanganat (1:1000) bilan yuviladi, yaralarga biror xil malham surtiladi, sharoitni yaxshilash to'yimli ozuqalar berish zarur bo'ladi, atoniyaga qarshi surgil dorilar tavsiya etiladi, glauber tuzi 400,0-800,0 miqdorda beriladi.

Kasallikning oldini olish maqsadida leptosperozga allergik tekshiriladi faol immunitet uchun qishloq xo'jalik hayvonlarini emlashga nosog'lom, xavfli va bo'rdoqichilik fermalarida polivalent deponerlangan vaksina VGNKI qo'llaniladi vaksinatsiya qilingan hayvonlarning qon zardobi leptosperozga 2-3 oy davomida tekshirilmaydi. Xo'jalikda leptosperoz qayd

qilinsa, darhol fermada karantin elon qilinadi va sog'lomlashtirish rejasi amalga oshiriladi, shu paytdan etiboran hamma ishlar tibbiyot xodimlari bilan birgalikda qilinadi. Karantin elon qilingandan keyin sog'lomlarini ajratish kerak, mollarni o'zboshimchalik bilan majburiy so'yish tarqatish fermadan uning uchin xar 7-10 kunda binolarda 2% faol xlorli oxak, 2-35 li issiq o'yuvchi natriy, 5% li ferokreolin bilan dezenfeksiya qilinadi.

Profilaktika. Chorva fermasiga faqat ushbu kasallik bo'yicha sog'lom, MAR bilan tekshirilganda salbiy natija bergan hayvonlar kiritiladi. Ular profilaktik nazorat davrida leptospirozga tekshiriladi. Erkak hayvonlar ijobiy reaksiya bersa, xo'jalikka kiritilmaydi. Faqat sog'lom xo'jalikdan serologik tekshirilgan hayvonlar va ozuqa olish kerak bo'ladi.

Leptospirozga qarshi emlanmagan itlar ko'rgazmaga qo'yilmaydi. Itga va mo'ynali hayvonlarga kasal, leptospira tashuvchi hayvonlarning mahsulotini berish mumkin emas. Hayvonlar, shu jumladan kemiruvchilar rejali leptospirozga tekshiriladi, ozuqa, ochiqdagi suv bakteriologik tekshiriladi. Abort, chiqim hisobga olinadi.

To'yimli ozuqalar bilan boqish, muntazam deratizatsiya o'tkazish va itlarni fermaga kiritmaslikning profilaktik ahamiyati katta.

Leptospiroz bo'yicha tabiiy o'choq hududida vaktsinasiyalanmagan mollarni yaylovda boqish mumkin emas. Yaylovlar, fermalar, suv ichiladigan joylarni veterinariya sanitariya holati yuqori darajada saqlanishi, balchiq, nam joylar quritilishi zarur. Ferma mollarni shaxsiy mollar bilan aralashtirmaslik, sog'lom hayvonlarni va nosog'lom podalarga yaqinlashtirmaslik, ularni bir joydan sug'ormaslik kerak. Kasallik xavfi tug'ilsa, darrov vaktsinasiyalash zarur.

Kasallikning oldini olish va davolash uchun birinchi vaktsina va giperimmun qon zardobi S.Ya. Lyubashenko tomonidan ishlab chiqilgan. Faol immunitet uchun qishloq xo'jalik hayvonlarini emlashga nosog'lom, xavfli va bo'rdoqichilik fermalarda polivalent depozirlangan vaktsina VGNKI qo'llaniladi. Vaktsinatsiya qilingan hayvonlarning qon zardobi leptospirozga 2-3 oy davomida tekshirilmaydi.

Qarshi kurashish tadbirlari. Xo'jalikda leptospiroz qayd qilinsa, darhol u nosog'lom deb e'lon qilinadi va xo'jalikka karantin qo'yiladi hamda sog'lomlashtirish rejasi tuziladi. Shu paytdan e'tiboran hamma ishlar SES xodimlari bilan hamkorlikda olib boriladi. Karantin e'lon qilingach, quyidagilar taqiqlanadi:

- nasldor mollarni chiqarish;
- yosh hayvonlarni ishchi-xizmatchilarga sotish;
- emlanmagan mollarni kiritish va chiqarish;
- veterinariya vrachi ruxsatisiz guruhlarini aralashtirish;
- majburiy so'yish va go'shtni tarqatish;
- ochiq suv manbalaridan foydalanish;

-avval kasalga chalingan mollar turgan joyga sog‘lomlarini kiritish;

-kasal mol o‘tlagan yaylovga bir haftagacha mol kiritish.

Chorvachilik fermalari va binolarining sanitariya holatini yaxshilash talab etiladi. Kasal hayvon maxsus maydonchada veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya qilingan holda so‘yilishi kerak.

Xulosa

Leptosperoz kasalligi o‘ta xavli yuqumli kasallik bo‘lib ko‘p hollarda o‘lim holati bilan tugaydi, bu kasallik tufayli bo‘g‘oz hayvonlarda bola tashlash yoki tug‘ulgan bolasi nimjon bo‘lib tug‘iladi ularning ham hayotchanligi past, kopgina patologik belgilari bilan ajralib turadi bu kasallik. Kasallikda aemiya, sariqlik, gemorratik diatez, shilliq pardalarda nekroz degfenereativ yallig‘lanish holatalri kuzatiladi. kasallikning oldini olish uchun vaqtida emlash ishlarini olib borish, sanitariya va gigiyena qoidalariga rioya qilish, tozalikka etibor berish lozim. Kasallik qo‘zg‘atuvchilari quruq muhitda yashay olmaydi shuning uchun tagini quruq saqlash lozim, tez-tez dezenfeksiya ishlarini olib borish kasallikning tarqalish oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mengliyev A.S Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar. O‘quv qo‘llanma Toshkent-2023. 73-74-betlar.

2. Mengliyev A.S Veterinariya mikrobiologiyasi va immunologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2024. 162-165-betlar.

3. Salimov X.S, Qambarov A.A, Salimov I.X Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar. Darslik Toshkent – 2021. 155-162 betlar.

4. Salimov X. S, Qambarov A .A Epizootologiya. Darslik Toshkent – 2016. 177-185 betlar.